

**3-SHO‘BA. PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR, DIDAKTIK
IMKONIYATLAR VA INNOVATSION FAOLIYATNI SAMARALI
TASHKIL ETISHNING DOLZARB MASALALARI**

**PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSIGA NAZARIY
YONDASHUVLAR**

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

*pedagogika fanlari doktori (DSc), O‘zbekiston davlat jahon
tillari universiteti*

[https://orcid.org/ 0009-0000-8371-6298](https://orcid.org/0009-0000-8371-6298)

m.jumaniyozova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada katta yoshlilar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari va kattalar ta’limiga kreativ yondashuvni tatbiq etish masalalari haqida so‘z yuritiladi

Kalit so‘zlar. ta’lim ehtiyojlari, kattalar ta’limi, kreativlik, kompetentlik

Jahon hamjamiyatida kasbiy rivojlanishning zamonaviy yo‘nalishlari tinchlik va taraqqiyot o‘zaro bog‘liq bo‘lgan “tinchlik, inson huquqlari va demokratiyani qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim”, “rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim”, “insonning erkin va to‘laqonli rivojlanishi” mumkin bo‘lgan, shaxs va jamiyat nuqtayi nazaridan “qadr-qimmat va teng huquqlar”ni tan oladigan, ta’limni “tanlash” va “ta’lim ehtiyojlari” uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lgan dunyo ta’limi sari ilgarilab bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning kadrlar tayyorlash tizimlarida moslashuvchan (soft skills) kompetensiyalarni akmeologik, innovatsion, kompetensiyali, tizimli, androgogik, integrativ, aksiologik va evtagogik yondashuvlar asosida ijtimoiy muhitda transprofessional ko‘nikmalar sifatida rivojlantirish, kasbiy-pedagogik ta’lim mazmunini individuallashtirish, raqamli texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitida kreativ kompetentlikni takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kattalarni o‘qitish uchun qabul qilingan xalqaro hujjatlarda, jumladan, kattalarni o‘qitishning Gamburg deklaratsiyasi (The Hamburg Declaration on Adult Learning, 1997); kattalarni o‘qitishning mazmuni va kelajagi to‘g‘risidagi

YUNESKO deklaratsiyasi; harakatlar uchun Dakar ramkasi: hamma uchun ta’lim: jamoaviy majburiyatlarni bajarish (The Dakar framework for Action: Education for All: Meeting our Collective Commitments UNESCO); Ta’lim huquqi (YuNESKO: The Right to Education); Evropa komissiyasi deklaratsiyasi; Evropada hayot davomida ta’lim olish (Lifelong Learning in Europe: Moving Towards EFA Goals and CONFINTEA V); Mustaqil davlatlar hamdo’stligi davlatlararo hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar mutaxassislarining o’qituvchini kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirish sohasida hamkorlik to’g’risida bitimi (Yalta, 2007), CONFINTEA VII Marokash Harakatlar doirasi: kattalar ta’limi va ta’limning transformatsion kuchidan foydalanish (Marokash, 2022) asosida katta yoshlilar ta’limini texnologiyalashgan jamiyatga yo’naltirishning xalqaro normalari belgilab berilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda tafakkur va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog’liqligi, har qanday odamning tafakkuri doimo (hech bo’lmaganda minimal) kreativ bo’lishi (A.V. Brushlinskiy), kreativlik-muammolarni aniqlash va qo’yish, ko’p sonli g’oyalarni yaratish, moslashuvchanlik, o’ziga xoslik, muammolarni analiz va sintez qilish qobiliyati (J. Gildford) sifatida talqin etiladi. Shaxsning kreativligi inson faoliyatining turli sohalarida qarama-qarshilik, muammoli vazifaning mavjudligi, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, jarayon yoki natijaning yangiligi va o’ziga xosligi (V.I. Andreev), intellektual qobiliyatlar orasida alohida tur sifatida har kimga xos bo’lgan, ammo atrof-muhit ta’siri ostida shaxs faoliyatida pasayib boradigan alohida yo’nalish (A.Maslou) hisoblanadi.

Mamlakatimizda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini metodologik rivojlantirish muammolari, uzluksiz va uzviylik tamoyillari asosida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari J.G.Yo’ldoshev, R.X.Djuraev, N.Muslimov, O.Musurmanova, X.Ibragimov, B.S.Abdullaeva, O’Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, A.A.Xalikov, D.I.Yunusova, O.A.Qo’ysinov, A.D.Asqarov, A.S.Djuraev, S.Yu.Maxmudov, M.T.Mirsoliyeva, M.A.Yuldashev, G.Ibragimova, F.Zokirova, Sh.Pozilova, A.R.Aripdjanova, M.J.Shodiyeva, N.Karimovalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Tahlil etilgan tadqiqotlarda kreativlik quyidagi yo’nalishlarda o’rganilgan:

birinchi yo‘nalish kreativlikni yaratilgan mahsulotlar bo‘yicha o‘rganadi, bunda ijodiy mahsulotning miqdori, sifati va ahamiyatini ko‘rib chiqishga asosiy e‘tibor qaratiladi;

ikkinchi yo‘nalishda kreativlik jarayon sifatida o‘rganiladi. Har qanday jarayon, shu jumladan, kreativ jarayon ham boshlanishi, davomiyligi, o‘zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga ega bo‘ladi. Bunday holda obyektiv yoki ideal kreativ mahsulot yaratilishi emas, kreativ fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi;

uchinchi yo‘nalishda kreativlik qobiliyat sifatida tahlil etiladi;

to‘rtinchi yo‘nalishda kreativlik shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi, o‘zini o‘zi rivojlantirishi jarayoni bilan bog‘lanadi va o‘zini o‘zi faollashtirgan mutaxassisning kreativligiga e‘tibor qaratiladi.

XXI asr boshida olib borilgan tadqiqotlarning umumiy xulosasi sifatida R. Epshteyn tomonidan “kreativ kompetentlik” tushunchasi fanga kiritiladi, u tushunchaning mazmunini egallangan bilim va ko‘nikmalarni turli nostandart vaziyatlarga moslashtirib qo‘llashga tayyorlik deb tavsiflaydi.

Kreativ kompetentlik kasbiy kompetensiyaning asosiy turlaridan biri sifatida e‘tirof etilib, turli soha va kasb egalari kreativ kompetentligining o‘ziga xosligini o‘rganishga e‘tibor qaratilgan: jumladan, bo‘lajak matematika o‘qituvchisining kreativ kompetentligi (I.S. Bekeshova), shaxsning integrallashgan ko‘pfaktorli layoqati sifatida bo‘lg‘usi filolog-pedagogning kreativ kompetentligi (I.Ye. Bryakova), talabalarning mustaqil ta’limga yo‘nalgan kreativ kompetensiyalari (A.M. Davtyan), raqamli texnologiyalar asosida matematika-informatika yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilarining kreativ potensialni rivojlantirish (A.A. Aripdjanova), kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish (N.S.Xo‘jayarova) va b.

“Kompetentlik” murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik kategoriya bo‘lib, uning tuzilmasini kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar, kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar kabi to‘rtta kichik guruhga ajratib ko‘rsatish mumkin.

Kreativ kompetentlik vaziyatlarni tez idrok qilish, muammoga tez kirishish, fikrlash tezligi, fikrlashning keng qamrovliligi, tahliliy malakalar, tanqidiy fikrlash sifatleri, muammolarni aniqlashda va yechimlar taklif etishda yangicha yondashuvning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Kreativ kompetentlik jarayon sifatida pedagogning kasbiy jihatdan o‘rishini anglatib, o‘z-o‘zini rivojlantirish,

o‘z ustida ishlash, mustaqil ravishda bilim olishga intilish asosida rivojlanib boruvchi qadriyatga aylanadi. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetentligi doimo rivojlanib boruvchi dinamik hodisa sifatida notekis rivojlanish troektoriyasiga ega bo‘ladi. Buning sababi pedagogning o‘z ustida ishlashi, o‘z malakasi va kasbiy darajasini oshirishga intilishi, kasbiy ehtiyojlarini anglay olishi, ichki va tashqi motivatsiya, turli vaziyatlar va jarayonlarga, moddiy va ma’naviy omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlar inson va jamiyat hayotida rivojlangan fuqarolik va zarur axloqiy sifatlar, yosh avlodda zamonaviy ijtimoiy hodisalarni ob’ektiv baholash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi va pedagogik jihatdan ta’lim oluvchini intellektual rivojlantirish funksiyasini; madaniyatlararo yondashuv asosida ijtimoiy-gumanitar tafakkurni shakllantirish funksiyasini; ta’lim oluvchida ijtimoiy-gumanitar intizomni shakllantirish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar mentalitetni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, inson xulq-atvorining chuqur asoslarini o‘zida mujassam etadi, ta’lim oluvchilar ongida jamiyatning eng barqaror ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi, sivilizatsiya, iqtisodiy hayot, milliy xarakter, haqiqatni to‘g‘ri anglash, axborotni idrok etish va uzatish; jamiyatning axloqiy, intellektual, ma’naviy hayoti davomiyligini nazarda tutadi. Biz kompetentlik tushunchasi aniq mazmun-mohiyat kasb etib, psixologik, pedagogik, ijtimoiy (ko‘nikma va kompetensiyalar bilan birgalikda) resurslardan foydalanish va safarbar qilish yo‘li bilan kasbiy ehtiyojlar majmuasini to‘ldirish vositalari va jarayonlarini o‘zida mujassam etadi, degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. –T., 2009. –176 b.

2. Muslimov N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik acoclari: ped.f. doktori darajacini olish uchun diccertatsiya. – Toshkent, 2007. – 337 b.

3. Musurmanova O. Kreativlik-pedagog kadrlar kompetentligini belgilovchi muhim indikator. //Oliy ta’lim: muammo va echimlar mavzusidagi Respublika konferentsiyasi materiallari. – T., 2020 y. -27-32 b.

4. Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. // Darslik. – Toshkent: Sakhof, 2023 y. – 416 b.

5. Aripjanova A.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. bo’yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref. – T.: 2017. 24 b.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –144 s.
7. Guilford G.P. Aptitude for creative thinking: one or talu? // Ibil., 1996. Vol.10. N3. II. 165-169.
8. Hallmann RJ. The necessary and sufficient conditions of creativity// Creativity: its educational implications. N.Y.; L.; Sidney, 1997.
9. Torrance E.П. Developing creative thinking through scool experience. – N.Y., 1992. – 215 п.
10. Jumaniyozova M. Methods of determining the integrative creativity of socio-humanitarian teachers. – 2022.
11. Tajiyevna J. M. Impact of creative thinking on teacher professional development //International Journal of Pedagogics. – 2024. – T. 4. – №. 06. – C. 76-80.